

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MILLIY MA‘NAVIY QADRIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Siddiqova Yulduz Muhiddin qizi
Guliston davlat universiteti
tayanch dokroranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy ma‘naviy qadryatlarni shakllantirishning mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, Ushbu maqolada milliy ma‘naviy qadryatlarning komponentlari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qadryat tushunchasi, milliylik, vatan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘quvchilar, talabalar, didaktika, madaniy komponent, tarixiy komponent, til komponenti, diniy va ahloqiy komponent, oilaviy komponent, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar komponenti, tabiiy va ekologik komponent

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, milliy ma‘naviy qadriyatlar asosida bolalarni ma‘naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, milliy qadriyat va an‘analarga qiziqtirish, yaqinlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda tashkiliy-huquqiy ishlar bilan birgalikda o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me‘morchilik obidalari, mamlakatimiz tabiati, Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibini va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish natijasida o‘quvchilarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirishda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbek ertaklari, matallari, afsonalari, dostonlari, maqollari asosida o‘quvchilarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat‘iyat, tadbirkorlik, oriyat, ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tadbirni tashkil etish kabilar ularda ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning milliy tarbiya borasidagi ilg‘or yutuqlarini o‘rganish, xalqaro ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish, xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etish talabalar uchun ma‘naviy ibrat timsoli bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi M.Stetsevich “Ma‘naviy-ahloqiy faoliyat, ahloqiy motivlar yordamida amalga oshirishini va ma‘naviy-ahloqiy maqsadlarga erishish, insonni erkin rivojlanishiga yo‘naltirilgani”ni qayd etadi¹. Shuning uchun ham talabalarga milliy ma‘naviy tadbirlar tashkil qilish, ularni ma‘naviy qadriyatlarga yo‘naltirilishini ta‘minlash oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari, professor-o‘qituvchilarining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

¹ . Стецкевич Мария Юрьевна. Педагогическое обеспечение преемственности в освоении школьниками нравственных ценностей. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М, 2015. 22 с.

Talabalarga milliy ma'naviy tarbiya berishda milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlardan ham samarali foydalanish, ayni paytda, ularga umumtaraqqiyotning zamonaviy yutuqlarini ham payvandlash talab qilinadi. Ma'naviy barkamol avlod o'z xalqi, Vatan tarixi, buyuk siymolari, milliy va tarixiy qadriyatlari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, to'y-marakalari, ularning mohiyatini chuqur bilgan holda jahon adabiyoti, san'ati, madaniyati durdonalari bilan yaxshi tanish bo'lmog'i, kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixi davomida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan oshno bo'lmog'i darkor. Bunda talabalarga milliy ma'naviy tarbiya berishni tashkil etish, qalbiga chuqur singdirish va ularni rejalashtirib, doimo namunali olib borish talab qilinadi.

Tabiiyki, shu o'rinda «Bularning barchasini o'rganish uchun vaqt ham, imkoniyat ham etmasa kerak?», «Audiovizual texnika taraqqiy etib ketgan bir zamonda bularni o'rganishga yoshlarda xohish va moyillik bo'ladimi?» qabilidagi savollar tug'ilishi tabiiy. Hamma gap ham ana shunda! Talabalar bilan milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish maqsadida ish olib borishni tashkil etishda bularning barchasini hisobga olish kerak. Shuning uchun ham, talaba yoshlarning milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish masalasiga kompleks tarzda yondashish talab qilinadi.

Ular orasida olib boriladigan ma'naviy ishlarning uslublarini yaxshi bilish mazkur sohadagi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning garovidir. Bilim maskanlarida olib boriladigan ma'naviy ishlarning samarasi, eng avvalo, to'g'ri tuzilgan reja va tadbirlarga bog'liqdir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach yoshlarga bo'lgan munosabat har qachongidan muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, bu borada kelajakdagi rejalarimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning ahamiyati bundanda dolzarb bo'lib borayotganligini tassavur qilishimiz mumkin. Chunki etakchi kuch bo'lgan yoshlar ertamiz egalari, kelajagimiz davomchilari hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir," deb ta'kidlagan.


Mamlakatimizda millat mavjudligini ta'minlovchi qadriyatlar, milliy ma'naviy qadriyatlar tufayli, ajdodlardan yangi avlodga o'tib kelmoqda. Fanda milliy ma'naviy qadriyatlar atamasi keng va tor ma'nolarda ifodalanadi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, milliy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy qadriyatlar, ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Buni biz faqatgina ta'lim-tarbiya maskanlari deb biluvchi joylardagina emas, balki yurtimizning barcha jabhalarida, uning etakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio va shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham milliy ma'naviy targ'ibot ishlarini olib borishimiz kerakligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Tor ma'noda, muayyan

shaxsning milliy ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni bo'lsa yoshlar masalasi bo'yicha davlatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq qilinayotganligidan ham kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'limni isloh qilish, universitetlarda mustaqil fikrlovchi, pedagogik vaziyatni tahlil qilish qobiliyatiga ega, o'quv jarayonini rejalashtirishni va amalga oshirishni, sinfda do'stona muhitni yarata oladigan, o'quvchilarni kuzatish va baholashga, ularning faoliyatini natijador tayyorlashga qodir bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash maqsadlarini o'z ichiga oladi. Oliy ma'lumotli mutaxassislarga jamiyat tomonidan qo'yilgan bunday talablar, so'nggi yillarda o'qituvchilar malakasining sezilarli darajada oshishishiga olib keldi.

Zamonaviy o'qituvchi, ijodiy shaxs bo'lib, kasbiy, katta pedagogik mahoratni aks ettiruvchi, ma'naviyati rivojlangan qobiliyatli bo'lishi kerak. Milliy ma'naviy qadriyatlarni, madaniyatni shakllantiruvchi muhit darsdan tashqari tadbirlar bilan ifodalanadi, universitet va kafedralarning tarbiyaviy ishlari, universitetning jismoniy tarbiya maydonlaridagi mashg'ulotlar bilan birgalikda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar ham olib borilishi talabalarda bu sifatlarning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarni milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish vositalari sifatida yozgi talabalar jamoalarining darsdan tashqari tadbirlari, talabalar sport klublari, talabalar jamoalari va teatrlari, mavzuli kechalar va boshqalar xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar ham keng imkoniyatlar yaratib, universitetda talabalarning ta'lim olish salohiyatlarini shakllanishiga ta'sir qiladi. Ushbu jarayonlarning shakllari xilma-xil bo'lib, bularga: talabalar ilmiy va amaliy konferensiyalari, pedagogik mahorat tanlovlari, shaharda tashkil etiladigan bayramlar, sport tadbirlari, mehnat desantlari, jamoaviy ijodiy faoliyat va boshqalarni kiritish mumkin.



1-rasm. Milliy ma'naviy qadryatlarning komponentlari

Milliy ma'naviy qadriyatlar jamiyatning asosiy madaniy, ijtimoiy va ahloqiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlarning asosiy komponentlari quyidagilar(1-rasm):

1. Madaniy komponent.

An'analar va urf-odatlar: Milliy bayramlar va tantanalar. Nikoh, tug'ilish, va dafn marosimlari kabi hayotiy marosimlar. Mahalliy urf-odatlar va xalq o'yinlari.

San'at va adabiyot: Milliy san'at turlari (tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, raqs). Milliy adabiyot (she'riyat, nasr, drama). Folklor, ertaklar, dostonlar va xalq qo'shiqlari.

2. Tarixiy komponent

Tarixiy voqealar va shaxslar: Milliy mustaqillik va davlat mustaqilligi uchun kurash. Buyuk tarixiy shaxslar va ularning merosi. Milliy tarixning muhim voqealari va sanalari.

Arxeologik va tarixiy yodgorliklar: Tarixiy obidalar va inshootlar. Arxeologik qazishmalar va muzeylar.

3. Til komponenti

Milliy til: Ona tilini saqlash va rivojlantirish. Milliy tilning shevalari va lahjalari.

- Ona tilida adabiyot, ilm-fan va san'atning rivojlanishi.

4. Diniy va ahloqiy komponent

Diniy e'tiqodlar: Diniy bayramlar va an'analar. Diniy urf-odatlar va marosimlar.

Axloqiy tamoyillar: Insonparvarlik, halollik, adolat, mehr-oqibat kabi axloqiy qadriyatlar. Oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyat va burchlar.

5. Oilaviy komponent

Oilaviy qadriyatlar: Oila tuzilishi va rol taqsimoti. Ota-ona, bola va boshqa oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar. Oilaviy an'analar va urf-odatlar.

6. Jamiyat va ijtimoiy munosabatlar komponenti

Mahalla va jamoat: Mahalla hayoti va jamoatchilik faoliyati. Qo'shniçilik munosabatlari va ijtimoiy yordam.

Ijtimoiy me'yorlar va odoð-axloq: Ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi rollar. Odoð-axloq qoidalari va ijtimoiy me'yorlar.

7. Tabiiy va ekologik komponent

Tabiatga munosabat: Milliy tabiatga bo'lgan hurmat va uni asrash. Ekologik madaniyat va tabiatni muhofaza qilish.

Tabiat bilan bog'liq urf-odatlar: Tabiat hodisalari va bayramlari (masalan, Navro'z). Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni asrash.

Milliy ma'naviy qadriyatlar yuqoridagi komponentlar orqali jamiyatning asosiy tamoyillarini aks ettiradi. Bu qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi va mustahkamlovchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ularni saqlash va avlodlarga yetkazish har bir kishining vazifasidir.

Hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari" mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat, "Taraqqiyot strategiyasi", Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy "aql markazlari"ga aylanishi zarurati mavjud. Kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san'atini izchil rivojlantirish, barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, teledasturlarning saviyasini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Bu masalani nechog'lik muhim ahamiyat kasb etayotganini Prezidentimizning "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bular- ning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir" degan so'zlari yana bir bor isbotlab turganini alohida ta'kidlash joiz.

Yaponiyalik pedagog-tadqiqotchi M.Tatsuxironing ta'kidlashicha "Yaponiya ta'lim vazirligining instruktsiyalariga ko'ra, jamiyatda faol ijtimoiy shaxsni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida beshta muhim jihatlarga amal qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bular: xulq-atvor me'yorlarinigina emas, balki hayot tarzini

tushunishni shakllantirish; bolalarda mustaqil va mas'uliyatli harakatlarga nisbatan xulq-atvori, fikrlari, his-tuyg'ulari, qobiliyatlari borasida o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini ishlab chiqishlariga alohida e'tibor berish, mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish; atrofidagi odamlarning manfaatlarini hurmat qilishga o'rgatish; guruhiy faoliyat olib borishni oddiy jarayon ruhida tarbiyalash; guruhning muammo, qiziqish va manfaatlarini xuddi o'ziniki sifatida qabul qilish kabi jihatlarni sanab o'tadi².

Yosh yapon fuqarolarini ahloqiy tarbiyalash dasturi, xulq-atvorning asosiy qoidalarini o'rgatish, kundalik hayotda jamoatchilik odob-ahloq normalariga rioya qilish, insonga munosib bo'lgan hayot kechirish zarurligini anglashni sindirish kabi bo'limlardan tashkil topgan³. Bularning barchasi bizning pedagogikaga, yoshlarni milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash vazifalarimizga juda ham yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Talabalarda milliy ma'naviy qadriyalarni rivojlantirish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayon emas, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar yordamida amalga oshiriladigan jarayondir.

Zamonamizning mashhur pedagoglaridan Sh.A.Amonashvili "Ta'limning ma'naviy asoslari" kitobida⁴ bo'lajak o'qituvchi haqida fikr yuritib, bolalarga bo'lgan muhabbat va ezgulik, ijodkorlik va yangiliklarga intilish, intuitsiya va donishmandlik, optimizm va sabr, jasorat va sodiqlikga ega bo'lishi, o'zining o'qituvchi sifatida ulug'vorligi va kamtarinligini xis qilishi lozim deydi.

Olib borilgan kuzatishlarga qaraganda ta'lim metodlarining barchasi ham talabalarda milliy ma'naviy qadriyalarni rivojlantirish vositasi bo'la olmaydi. Ammo darsda turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga, bilimlarni egallash jarayonining zerikarli bo'lmasligiga erishish mumkin. Yosh avlodda milliy ma'naviy qadriyatlarni, singdirishimiz, ularda vatanga bo'lgan muxabbat hissini shakllantirish uchun eng avvalo, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda milliy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishimiz lozim.

² Тацухиро М. Нравственное воспитание в Японии / М. Тацухиро. – URL: http://letidor.ru/article/nravstvennoe_vospitanie_v_yuro_125736/?ltd-cache=y (мурожаат санаси: 7.02.2023.).

³ Тацухиро М. Нравственное воспитание в Японии / М. Тацухиро. – URL: http://letidor.ru/article/nravstvennoe_vospitanie_v_yuro_125736/?ltd-cache=y (мурожаат санаси: 7.02.2023.).

⁴ Амонашвили Ш.А. Духовная основа образования (Электрон ресурс). http://royallib.com/read/amonashvili_shalva/duhovnaya_osnova_obrozovaniya.html (мурожаат килинган сана: 27.05.2023.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Стецкевич Мария Юрьевна. Педагогическое обеспечение преемственности в освоении школьниками нравственных ценностей. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М, 2015. 22 с.
2. Тацухиро М. Нравственное воспитание в Японии / М. Тацухиро. – URL: http://letidor.ru/article/nravstvennoe_vospitanie_v_yapo_125736/?ltd-cache=y (мурожаат санаси: 7.02.2023.).
3. Тацухиро М. Нравственное воспитание в Японии / М. Тацухиро. – URL: http://letidor.ru/article/nravstvennoe_vospitanie_v_yapo_125736/?ltd-cache=y (мурожаат санаси: 7.02.2023.).
4. Амонашвили Ш.А. Духовная основа образования (Электрон ресурс). http://royallib.com/read/amonashvili_shalva/duhovmaya_osnova_obrozovaniya.html (мурожаат қилинган сана: 27.05.2023).
5. Мухсиева А. Оилада миллий тарбияни ташкил этишнинг методик асослари. / Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 2005.
6. Мухаммаджон Имомназаров. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи (Олий ўқув юртлири учун ўқув қўлланма) Тошкент. 2008. 250 б. Б.9.
7. 49. Нурумбекова Я.А. Бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий-ахлоқий тайёрлаш тизимини такомиллаштириш: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. – Т., 2020. – 48 б. В.17.
8. Ортиқов Н. Миллий ва умумбашарий кадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш.: пед. фан. док. ... дисс. – Т.: 2000. 305 б.
9. Shahriddinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
10. Shahriddinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
11. Shahriddinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students // *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.
12. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD // *American Journal of Applied Science and Technology*. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 09-14.
13. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.

14. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.

15. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.

16. Karimova S., Habibullayeva S. THE SIGNIFICANCE AND ITS APPLICATION OF EXHIBITION IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1335-1339.

